

## Andijon viloyatining Demografik holati

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

### I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026 yilning 1-aprel holatiga Andijon viloyatidagi doimiy aholisi soni **3 533,9** ming kishini tashkil etib, 2026 yilning yanvar-mart holatiga nisbatan **1,7** foizga ko'paygan. 2026 yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **16,8** ming nafarni, vafot etganlar **4,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **12,7** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga jami ko'chib kelganlar soni **2,8** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **3,6** ming kishini qayd etilgan, nikohlar **3,2** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,3** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	<b>3 533,9</b>	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	<b>16,8</b>	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	<b>4,1</b>	<i>ming kishi</i>
Ko'chib kelganlar	<b>2,8</b>	<i>kishi</i>
Ko'chib ketganlar	<b>3,6</b>	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	<b>3,2</b>	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	<b>1,3</b>	<i>ming birlik</i>

## II. Doimiy aholi soni


Andijon viloyatida doimiy aholi soni 2026 yil 1-aprel holatiga ko'ra **3 533,9** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **59,8** ming kishiga yoki **1,7** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 845,1** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **52,2** %), qishloq joylarda esa **1 688,8** ming kishi (**47,8** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 743 ,5** ming kishini (**49,3** %), erkaklar esa **1 790,4** ming kishini (**50,7** %), tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni, ming kishi (1-aprel holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 474,1</b>	<b>3 533,9</b>	<b>101,7</b>
Andijon sh.	495,0	506,0	102,2
Xonobod sh. tumanlar:	46,7	47,1	100,9
Oltinko'l	194,7	196,9	101,1
Andijon	294,2	299,9	101,9
Baliqchi	220,9	224,8	101,8
Bo'ston	80,0	81,6	102,0
Buloqboshi	156,4	159,0	101,7
Jalaquduq	202,7	205,7	101,5
Izboskan	261,2	265,7	101,7
Ulug'nor	64,4	64,8	100,6
Qo'rg'ontepa	235,2	238,8	101,5
Asaka	363,4	369,6	101,7
Marhamat	190,6	193,9	101,7
Shahrixon	332,5	338,4	101,8
Paxtaobod	213,3	216,7	101,6
Xo'jaobod	122,9	125,0	101,7

Andijon viloyatida 2026 yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **821,8** kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yil 1-aprel holatiga ushbu ko'rsatkich **807,9** kishini, 2021 yilda esa ushbu ko'rsatkich **744,3** kishini tashkil etgan.

### Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **16,8** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,4** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,9** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan bir hil bo'lgan.


**Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi**



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **16,8** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **8,7** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,8%**), qiz bolalar soni **8,1** ming kishini (**48,2%**) va shahar joylarida **9,0** ming kishini (**53,6%**), qishloq joylarida **7,8** ming kishini (**46,4%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **4,1** ming kishini, shundan erkaklar **2,3** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **56,1%**), ayollar **1,8** ming kishini (**43,9%**) va shahar joylarida **2,3** ming kishini (**56,1%**), qishloq joylarida **1,8** ming kishini (**43,9%**) tashkil qildi.


**Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi**



#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,2** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.


Nikohdan ajralishlar soni **1,3** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **3,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,6** ming birlikni (**49,5%**), qishloq joylarida **1,6** ming birlikni (**50,5%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1,3** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,7** ming birlikni (**55,5%**), qishloq joylarida **0,6** ming birlikni (**44,5%**) tashkil qildi.

#### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



## V. Aholi migratsiyasi


2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **2 833** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **2 827** kishini tashqil etgan, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **6** kishini tashkil qiladi.

Ko'chib ketganlar jami soni **3 610** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 592** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **18** kishini tashkil qildi.

### Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 833</b>	<b>2 827</b>	<b>6</b>	<b>3 610</b>	<b>3 592</b>	<b>18</b>
Andijon sh.	708	707	1	742	740	2
Xonobod sh.	99	99		106	104	2
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	208	208		236	234	2
Andijon	454	454		402	398	4
Baliqchi	80	80		170	170	
Bo'ston	62	62		81	81	
Buloqboshi	56	55	1	129	129	
Jalaquduq	113	113		224	224	
Izboskan	144	144		208	205	3
Ulug'nor	59	59		75	73	2
Qo'rg'ontepa	192	192		272	272	
Asaka	171	167	4	158	158	
Marhamat	82	82		134	133	1
Shahrixon	118	118		347	347	
Paxtaobod	73	73		192	192	
Xo'jaobod	214	214		134	132	2

### Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



## VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

**Demografik ko'rsatkichlarni** shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
A. Saidmaxmudov  
74 228-80-00 (6070)

**Manzil:**  
